Asosiy qonunimiz – Konstitutsiyaning 15-moddasida O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so‘zsiz tan olinadi. Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko‘radilar deb mustahkamlab qo‘yilgan.

Jamiyatda qonuniylik va huquqiy tartibot o‘rnatilmasa, shaxsning huquq va erkinliklari qat’iy intizom, ichki uyushqoqlik va mas’uliyat jihatidan ustuvor bo‘lmasa, qonunlar va milliy an’analar, urf-odatlar, umuminsoniy qadriyatlar hurmat qilinmasa, demokratik huquqiy davlatni barpo etib bo‘lmaydi.

Ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni yuritishga oid asosiy normativ-huquqiy hujjat – O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksidir (bundan keyin matnda MJtK deb yuritiladi). O‘zbekiston Respublikasining MJtK qanday harakat yoki harakatsizlik ma’muriy huquqbuzarlik hisoblanishini, ma’muriy huquqbuzarlikni sodir etgan shaxsga nisbatan qaysi organ (mansabdor shaxs) tomonidan qay tartibda qanaqa ma’muriy jazo qo‘llanishi va ijro etilishini belgilaydi.

Shuning uchun O‘zbekiston Respublikasining MJtKning 15-moddasida “Ma’muriy huquqbuzarlik deganda qonunchilikka binoan ma’muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan, shaxsga, fuqarolarning huquqlari va

erkinliklariga, mulkchilikka, davlat va jamoat tartibiga, tabiiy muhitga tajovuz qiluvchi g‘ayrihuquqiy, aybli (qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasida) sodir etilgan harakat yoki harakatsizlik tushuniladi” deb belgilangan.

Huquqiy davlat qurish jarayonida davlat boshqaruvi organlarining, jumladan, bojxona organlarining ma’muriy-yurisdiksion faoliyatini takomillashtirish masalasi alohida dolzarblik kasb etadi. Bu borada, eng avvalo, “ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni yuritish” tushunchasining mazmun-mohiyatini ilmiy jihatdan ochib berish zarurati yuzaga keladi.

**Asosiy qism**

Ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni yuritish – ma’muriy protsess tarkibidagi ma’muriy yurisdiksiyaviy faoliyatning alohida turi bo‘lib, ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni qo‘zg‘atish, ularni ko‘rib chiqish hamda ishni tugatishgacha bo‘lgan harakatlar majmuyidan iborat (Khamedov & Mukhamedov, 2017).

Lekin ayrim rus olimlari, jumladan, D.N. Baxrax ma’muriy javobgarlikni davlat majburlov chorasining alohida turi sifatida ta’riflab, ishlarni yuritishni uning protsessual shakli, ya’ni javobgarlikni amalga oshirishning operativ va nisbatan soddalashtirilgan tartibi sifatida ko‘rsatadi (Bakhrakh, 2000).

Y.M. Kozlov (1999) esa ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni yuritishni davlat boshqaruvi funksiyalarini amalga oshirishning tarkibiy qismi, boshqaruvchi subyektning boshqariluvchi obyektga nisbatan qo‘llaydigan ta’sir vositalaridan biri deb hisoblaydi.

N.G. Salisheva ma’muriy jarayon nazariyasining asoschilaridan biri sifatida, ishlarni yuritishni to‘rt bosqichli (ishni qo‘zg‘atish, tayyorlash va ko‘rib chiqish, qaror qabul qilish, ijro etish) protsessual faoliyat sifatida ta’riflaydi va uni davlat boshqaruvining muhim kafolati deb hisoblaydi (Salishcheva, 1964).

Ushbu olimlarning fikrlarini o‘rgangan holda, biz ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni yuritish deb – vakolatli davlat organlari (mansabdor shaxslari) tomonidan ma’muriy huquqbuzarlik sodir etilganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni aniqlash va ishni qo‘zg‘atishdan tortib, uning holatlarini har tomonlama, to‘liq va obyektiv ravishda tekshirish, zarur dalillarni to‘plash hamda baholash, huquqbuzarlik tarkibini qonunda belgilangan tartibda yuridik jihatdan baholash (malakalash), shaxsning himoya huquqi va boshqa protsessual kafolatlarini ta’minlagan holda ish yuzasidan asosli va qonuniy qaror qabul qilish, shuningdek, qabul qilingan qarorni ijro etish hamda unga shikoyat qilish bilan bog‘liq, qonun bilan qat’iy belgilangan protsessual harakatlar majmuyi deb ta’riflashni lozim deb hisoblaymiz.

Ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni yuritish vazifalari: har bir ishning holatini o‘z vaqtida, har tomonlama, to‘la va obyektiv ravishda aniqlab chiqishdan, bu ishni qonunchilikka muvofiq holda hal etishdan, chiqarilgan qarorning ijrosini ta’minlashdan, shuningdek, ma’muriy huquqbuzarlik sodir etish sabablari va bunga olib kelgan shart-sharoitlarni aniqlashdan, huquqbuzarliklarning oldini olishdan, fuqarolarni O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etish ruhida tarbiyalashdan, qonuniylikni mustahkamlashdan iboratdir (Republic of Uzbekistan, 2026).

Ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni yuritish tartibi davlat boshqaruvi tizimida qonuniylikni ta’minlash, huquqbuzarliklarni tezkor aniqlash va ularga nisbatan adolatli chora ko‘rishning muhim protsessual mexanizmlaridan biri hisoblanadi.

Endilikda, bojxona sohasidagi ma’muriy huquqbuzarliklar deganda, O‘zbekiston Respublikasining MJtK bilan javobgarlik belgilangan bojxona organlari faoliyati bilan bog‘liq huquqbuzarliklar tushuniladi.

Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 227-, $227^{1}$–$227^{27}$ moddalarida bojxona qonunchiligi buzilishi uchun ma’muriy javobgarlikni belgilovchi normalar ko‘rsatib

o‘tilgan. Mazkur qoidabuzarliklar bojxona chegarasini kesib o‘tish, bojxona rasmiylashtiruvi hamda bojxona to‘lovlarini undirish bilan bog‘liq jarayonlarda kelib chiqadi.

Darsliklarda bojxona sohasiga oid ma’muriy huquqbuzarliklar sodir etish xarakteriga ko‘ra quyidagicha tasniflangan:

1. Tovarlar va transport vositalarining bojxona chegarasidan o‘tkazilishi bilan bog‘liq ma’muriy huquqbuzarliklar – Bojxona kodeksida va boshqa qonun hujjatlarida belgilangan tovarlar va transport vositalarining bojxona chegarasidan o‘tkazilishi bilan bog‘liq tartib va qoidalarga aybli g‘ayrihuquqiy rioya etmaslikdir.

2. Bojxona nazorati, rejimlari va rasmiylashtiruvi bilan bog‘liq ma’muriy huquqbuzarliklar – Bojxona kodeksi va boshqa qonun hujjatlarida belgilangan bojxona nazorati va rasmiylashtiruvi bilan bog‘liq tartib va qoidalarga aybli g‘ayrihuquqiy rioya etmaslikda ifodalanadi.

3. Bojxona to‘lovlari bilan bog‘liq ma’muriy huquqbuzarliklar – Bojxona kodeksi va boshqa qonun hujjatlarida belgilangan bojxona to‘lovlari bilan bog‘liq tartib va qoidalarga aybli g‘ayrihuquqiy rioya etmaslikdir (Achilov et al., 2023).

Bojxona sohasidagi ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni yuritish – ma’muriy protsess tarkibidagi ma’muriy yurisdiksiyaviy faoliyatning alohida turi bo‘lib, ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni qo‘zg‘atish, ish bo‘yicha dalillar to‘plash, protsessual hujjatlar tuzish, ularni ko‘rib chiqish hamda ishni tugatishgacha bo‘lgan harakatlar majmuyidan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi MJtKda havola qiluvchi normalar qo‘llangan bo‘lib, ular ayrim masalalarni boshqa qonun hujjatlariga yoki normalarga murojaat qilishni nazarda tutadi. Jumladan, bojxona sohasidagi ma’muriy huquqbuzarliklar bojxona kodeksi va boshqa normativ huquqiy hujjatlarga yo‘naltiradi. Shuning uchun bojxona organlarida ma’muriy huquqbuzarliklarni yuritish jarayonida bojxona qoidalarini chuqur bilish lozim va qaysi harakatni buzganlik uchun qanday javobgarlik belgilanganligini bilish mumkin. Hozirda moddiy tovar boyliklari hamda zararlar bilan bog‘liq bo‘lmagan (formal tarkibli) huquqbuzarliklarni soddalashtirilgan tartibda yuritish va ko‘rib chiqishni zamonning o‘zi taqozo qilmoqda.

Ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni tahlil qilganimizda 2026-yil birinchi yarim yilligida 363 259 ta (2025-yilda 690 879 ta) ishlar sudlar tomonidan ko‘rib chiqilib, 222 318 ta (368 003) ishga jarima jazosi tayinlanganligini ko‘rish mumkin (Supreme Court of the Republic of Uzbekistan, n.d.).

Shu bilan birgalikda, davlat bojxona xizmati organlari tomonidan 2026-yil birinchi yarim yilligida 26 977 ta bojxona qonun buzilishi bilan bog‘liq huquqbuzarliklar aniqlangan bo‘lib, 25 387 ta holat yuzasidan ma’muriy ishlar yuritilgan (Customs Committee under the Ministry of Economy and Finance of the Republic of Uzbekistan, n.d.).

O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi qonunchiligi mazkur sohada muayyan huquqiy asoslarni belgilab bergan bo‘lsa-da, amaliyotda ish yuritish jarayonida ortiqcha qog‘ozbozlik, xolis, guvoh, tarjimonlarni jalb qilish bilan bog‘liq muammolar, dalillarni tekshirishdagi tashkiliy qiyinchiliklar hamda sudlarda ishlarni ko‘rib chiqish tartibining samaradorligi bilan bog‘liq ayrim masalalar saqlanib qolmoqda. Shu bois mazkur sohani rivojlantirishda ilmiy asoslangan islohot takliflarini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi.

Avvalo, ma’muriy huquqbuzarlik ishlarini yuritishda ortiqcha qog‘ozbozlikni qisqartirish masalasiga e’tibor qaratish zarur. Amaldagi tartibga ko‘ra, huquqbuzarlik holati aniqlanganidan so‘ng bayonnoma tuzish, guvohlarning tushuntirish xatlari, dalillarni rasmiylashtirish, protsessual hujjatlarni tayyorlash kabi bir qator hujjatlar qog‘oz shaklida rasmiylashtiriladi. Bu esa ish yuritish jarayonini sekinlashtirishga hamda

inson omili bilan bog‘liq xatolar ehtimolining ortishiga olib keladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-apreldagi “Davlat xizmatlari ko‘rsatishni soddalashtirish, byurokratik to‘siqlarni qisqartirish hamda davlat xizmatlari ko‘rsatish milliy tizimini rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–113-son Farmoni asosida respublikada davlat xizmatlarini ko‘rsatishda byurokratizm, sansalorlik va boshqa ma’muriy to‘siqlarni bartaraf etish, eskirgan va zamon talablariga mos kelmaydigan tartib-taomillarni tubdan qisqartirishga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

*Jumladan, aholi va tadbirkorlik subyektlaridan 73 turdagi ma’lumotnoma va hujjatlarni taqdim etish talabi bekor qilinib, ushbu ma’lumotlarni davlat organlari tomonidan “Elektron hukumat” tizimining idoralararo integratsiyalashuv platformasi orqali olish tartibi joriy etildi.*

Shu bilan birga, ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni yuritish va ko‘rib chiqish vakolatiga ega bo‘lgan davlat organlarining axborot tizimlari va ma’lumotlar bazalarini Yagona billing tizimiga bosqichma-bosqich integratsiya qilish ishlari belgilandi.

Shu nuqtayi nazardan, ilmiy adabiyotlarda ma’muriy protsessni raqamlashtirish orqali protsessual harakatlarni avtomatlashtirish samarali yechim sifatida baholanadi.

Yevropa Ittifoqi davlatlarida ma’muriy huquqbuzarlik ishlarini yuritishda elektron platformalardan foydalanish amaliyoti *European Commission* raqamlashtirish siyosati hamda *European Union Agency for Law Enforcement Cooperation (Europol)* hisobotlarida qayd etilganidek, huquqbuzarliklarni foto va videofiksatsiya qilish, elektron bayonnomalarni shakllantirish hamda ma’lumotlarni yagona axborot tizimlarida saqlash mexanizmlari orqali amalga oshiriladi (European Commission, 2021). O‘zbekistonda ham ma’muriy ish yuritishni bosqichma-bosqich elektron formatga o‘tkazish, elektron bayonnoma va elektron dalillar bazasini joriy etish orqali ortiqcha qog‘ozbozlikni sezilarli darajada kamaytirish mumkin.

Ikkinchidan, ma’muriy huquqbuzarlik holatlarini qayd etishda xolis guvohlarni jalb qilish amaliyotidir. Amaldagi tartibga ko‘ra, ayrim protsessual harakatlarni amalga oshirishda ikki nafar xolis va guvoh ishtirok etishi talab qilinadi. Biroq amaliyotda xolis guvohlarni topish, ularning shaxsini aniqlash va ulardan tushuntirish xatlari olish muayyan vaqt va tashkiliy resurslarni talab qiladi. Shu sababli qator davlatlarda mazkur institutni texnologik vositalar bilan almashtirish amaliyoti shakllangan. Masalan, “Germaniya va Finlyandiya kabi davlatlarda protsessual harakatlarni audio- va videoyozuv orqali qayd etish *Strafprozessordnung* hamda Finlyandiya protsessual qonunchiligi normalarida nazarda tutilgan bo‘lib, *Council of Europe va European Commission* materiallarida qayd etilganidek, mazkur vositalar inson omili ta’sirini kamaytirish va protsessual harakatlarning xolisligini ta’minlashda samarali instrument sifatida baholanadi” (Federal Republic of Germany, 2022; Council of Europe, 2019).

Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekiston qonunchiligida ayrim protsessual harakatlar bo‘yicha xolis va guvohlar ishtirokini majburiy talab sifatida belgilash o‘rniga, ularni videoyozuv yoki elektron bayonnomalashtirish bilan almashtirish imkoniyatini nazarda tutish maqsadga muvofiq.

Qozog‘iston Respublikasi Ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi kodeksining 754-moddasida guvoh, 755-moddasida xolislarning huquq va majburiyatlari ko‘rsatilgan. Ushbu qonunlarni tahlil qilib aytish mumkinki, milliy qonunchiligimizda xolis va guvohning huquq va majburiyatlarini aniq va kengroq talqin qilish lozim (Republic of Kazakhstan, 2014).

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi MJtKning 298-moddasini quyidagicha yangi tahrirda qabul qilish lozim. *“Guvoh ish uchun ahamiyatli bo‘lgan holatlardan xabardor*

*bo‘lishi mumkin bo‘lgan har qanday shaxs, agar qonunda boshqacha qoida nazarda tutilgan bo‘lmasa, ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish bo‘yicha guvoh sifatida chaqirilishi mumkin. Guvoh quyidagi huquqlarga ega: o‘ziga, turmush o‘rtog‘iga yoki yaqin qarindoshlariga qarshi ko‘rsatma berishdan bosh tortish; o‘z ko‘rsatuvlarining tegishli bayonnomaga kiritilishining to‘g‘riligi haqida bayonotlar va mulohazalar bildirish; ishni ko‘rib chiqish paytida o‘z ona tilida gapirish va tarjimonning bepul yordamidan foydalanish. Guvoh ma’muriy huquqbuzarlik ishini ko‘rib chiqayotgan sudya, organ (mansabdor shaxs) tomonidan chaqirilganda hozir bo‘lishi, ish bo‘yicha bilganlarining barchasini to‘g‘ri bayon qilishi va berilgan savollarga javob berishi, shuningdek, tegishli bayonnomada o‘z ko‘rsatuvlarining to‘g‘ri yozib qo‘yilganligini o‘z imzosi bilan tasdiqlashi shart. Guvoh ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish vakolatiga ega organga (mansabdor shaxsga) ko‘rsatma berishdan bo‘yin tovlagani yoki undan bosh tortgani, ataylab yolg‘on ko‘rsatma bergani uchun ma’muriy javobgarlik va sudda ushbu harakatlarni sodir etgani uchun jinoiy javobgarlik haqida ogohlantiriladi. Agar guvoh ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishni yuritayotgan sudya, organ (mansabdor shaxs) tomonidan chaqirilganda kelmasa, u sudya, organ (mansabdor shaxs)ning qarori asosida ichki ishlar organi tomonidan olib kelinishi mumkin. O‘n to‘rt yoshga to‘lmagan voyaga yetmagan guvohni so‘roq qilishda o‘qituvchi yoki psixologning ishtiroki majburiydir. Zarur bo‘lganda, so‘roq guvohning qonuniy vakili ishtirokida o‘tkaziladi”.*

O‘zbekiston Respublikasi MJtKga yangi 298[1]-moddani kiritish lozim: “*Xolislar. Ushbu Kodeksda nazarda tutilgan hollarda, ishning natijasidan manfaatdor bo‘lmagan va o‘z ishtirokida sodir bo‘layotgan harakatlarni to‘liq va to‘g‘ri idrok eta oladigan, voyaga yetgan shaxs xolis sifatida chaqiriladi. Xolisning ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish yuritishda ishtiroki shaxsiy ko‘rik, transport vositalari va buyumlarni ko‘zdan kechirish, jismoniy shaxsning qo‘lida bo‘lgan hujjatlar va buyumlarni olib qo‘yish, binolarni va mol-mulkni tekshirish, hujjatlar va mol-mulkni olib qo‘yish to‘g‘risidagi bayonnomalarda aks ettiriladi. Xolis guvoh ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishni yuritayotgan mansabdor shaxsning chaqiruviga binoan hozir bo‘lishi, ushbu ish bo‘yicha sud majlisida ishtirok etishi va tegishli bayonnomada o‘z ishtirokida amalga oshirilgan harakatlar faktini, ularning mazmuni va natijalarini o‘z imzosi bilan tasdiqlashi shart. Xolis bajarilayotgan harakatga oid bayonotlar va mulohazalar bildirish huquqiga ega, ular bayonnomaga kiritilishi kerak. Xolislar qatnashtirish imkoniyati bo‘lmagan vaziyatlarda videoyozuv orqali qayd etilishi mumkin”.*

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 8-iyuldagi “Ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritishning elektron tizimini joriy etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar haqida”gi 431-son qarori bilan “E-ma’muriy ish” tizimi amaliyotga joriy etildi. Ushbu axborot dasturi orqali huquqbuzarlik sodir etilgan holat yuzasidan ma’muriy ish hujjatlarini elektron tarzda rasmiylashtirish va shakllantirish, vakolatli organga elektron yuborish hamda huquqbuzarlik sodir etgan shaxs, jabrlanuvchi, guvoh va xolislar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni to‘plash, umumlashtirish, saqlash, tahlil qilish, shuningdek, vakolatli organlar o‘rtasida idoralararo axborot almashishning yagona markazlashtirilgan elektron tizimi hisoblanadi.

Mazkur axborot dasturiga ma’muriy ishlarni qo‘zg‘atish, ko‘rib chiqish va bayonnoma tuzishga vakolatga ega davlat organlari tomonidan ma’lumotlar kiritiladi. Hozirda vakolatli organlar soni 48 taga yetgan.

Vakolatli organlar tomonidan huquqbuzar, jabrlanuvchi, guvoh va xolislar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni sudga yuborish, shuningdek, sudda ishni ko‘rish bilan bog‘liq ma’lumot almashinuvi faqat “E-ma’muriy

ish" tizimi orqali amalga oshiriladi. Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishning qog'oz nusxasi skanerlanib, elektron fayl qilib joylashtiriladi.

Ma'muriy huquqbuzarlik ishlarida dalillarni yig'ish va tekshirish mexanizmini takomillashtirish ham muhim ahamiyatga ega. Amaliyotda dalillar asosan huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari tomonidan yig'iladi va keyinchalik sud tomonidan baholanadi. Biroq dalillarning ishonchliligini tekshirish jarayoni ba'zan murakkab va vaqt talab qiluvchi jarayonga aylanadi. Xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, dalillarning yagona elektron reyestrini joriy etish mazkur muammoni hal qilishda samarali mexanizm hisoblanadi.

"Kanada va Niderlandiyada ma'muriy hamda jinoiy ishlarda yig'ilgan dalillar raqamli platformalarda saqlanib, *Royal Canadian Mounted Police va Netherlands Council for the Judiciary* tizimlari orqali vakolatli organlar va sudlar tomonidan tekshiriladi. *European Commission hamda Council of Europe* materiallarida qayd etilganidek, bunday yondashuv dalillarning o'zgarmasligi, shaffofligi va ishonchliligini ta'minlaydi" (Royal Canadian Mounted Police, 2020).

Xitoyda bojxona qoidabuzilishlari bo'yicha ishlar asosan davlat bojxona organi – Xitoy Xalq Respublikasining Bosh bojxona boshqarmasi tomonidan yuritiladi. Ushbu tizim "Customs Administrative Penalty Implementation Regulations" hamda Xitoy Bojxona qonuni asosida amal qiladi (General Administration of Customs of the People's Republic of China, n.d.). Xitoy tajribasida ish yuritishning asosiy xususiyati – huquqbuzarliklarni aniqlashda avtomatlashtirilgan axborot tizimlaridan foydalanishdir. Bojxona deklaratsiyalari, yuk hujjatlari va logistika ma'lumotlari maxsus elektron platforma orqali tahlil qilinadi. Xavflarni boshqarish algoritmlari orqali shubhali operatsiyalar avtomatik tarzda aniqlanadi va tekshiruvga yuboriladi. Agar qoidabuzarlik aniqlansa, bojxona organi tomonidan ma'muriy ish qo'zg'atiladi, dalillar yig'iladi va qaror qabul qilinadi. Ilmiy tadqiqotlarda qayd etilishicha, Xitoyda bojxona ishlarining katta qismi elektron dalillar va raqamli ma'lumotlar asosida ko'rib chiqiladi, bu esa ish yuritish jarayonini sezilarli darajada tezlashtiradi.

**Xulosa**

O'zbekiston sharoitida ham ma'muriy huquqbuzarlik ishlari bo'yicha dalillarning elektron reyestrini yaratish, foto-video materiallar va boshqa elektron ma'lumotlarni yagona tizimda saqlash tizimini joriy etish ilmiy jihatdan asoslangan taklif sifatida qaralishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan tahlillar asosida quyidagi ilmiy asoslangan takliflarni ilgari surish mumkin: ma'muriy huquqbuzarlik ishlarini yuritish jarayonini to'liq raqamlashtirish va elektron bayonnoma tizimini joriy etish; xolis guvohlar institutini bosqichma-bosqich videofiksatsiya va audiofiksatsiya mexanizmlari bilan almashtirish; dalillarning yagona elektron reyestrini yaratish va sudlar hamda vakolatli organlar uchun yagona axborot bazasini shakllantirish; ayrim ma'muriy huquqbuzarlik ishlari bo'yicha soddalashtirilgan va masofaviy sud ko'rib chiqish tartiblarini joriy etish.

Yuqoridagilarni inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi MJtKning 282-moddasida ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnomani yuborish tartibiga oid qoidalarni to'ldiruvchi norma kiritish maqsadga muvofiq. Ushbu moddaga oxirgi band sifatida "Agar ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish bo'yicha huquqbuzarlikni sodir etish quroli bo'lgan ashyoni musodara qilish zarurati mavjud bo'lmasa hamda huquqbuzarlik natijasida zarar yetkazilmagan bo'lsa, ish soddalashtirilgan tartibda yuritiladi. Bunda ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnoma ishni ko'rib chiqish uchun yetarli hujjat hisoblanadi" deb kiritish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ma'muriy huquqbuzarlik ishlarini yuritish tizimini takomillashtirishda raqamlashtirish, protsessual harakatlarni avto-

matlashtirish va sud amaliyotini soddalashtirish asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur chora-tadbirlar orqali ish yuritish jarayonining shaffofligi, tezkorligi va samaradorligini oshirish, shuningdek inson omili ta'sirini kamaytirish mumkin. Bu esa, o'z navbatida, O'zbekistonda ma'muriy adolatni ta'minlash va huquqbuzarliklar profilaktikasini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ma'muriy huquqbuzarliklar bo'yicha ish yuritishning qonuniyligini ta'minlash hamda ma'muriy faoliyatini takomillashtirish zarur bo'ladi.

## REFERENCES

Achilov, A., Akhlimirzaev, A., Shomirzaev, S., Ismoilov, H., Mamatov, Sh., & Dadaboev, U. (2023). *Bojxona organlarining huquqni muhofaza qilish faoliyati* [Law enforcement activities of customs authorities] (Part II). Customs Institute.

Bakhrakh, D. N. (2000). *Administrativnoe pravo* [Administrative law]. Norma.

Council of Europe. (2019). *Guidelines on electronic evidence and explanatory memorandum*. https://rm.coe.int/guidelines-on-electronic-evidence-and-explanatory-memorandum/1680968ab5

Customs Committee under the Ministry of Economy and Finance of the Republic of Uzbekistan. (n.d.). *Register of preliminary decisions on customs payments.* https://customs.uz/oz/registries/decisions

European Commission. (2021). *Digital Europe Programme (2021–2027).* https://commission.europa.eu/strategy-and-policy/eu-budget/long-term-eu-budget/2021-2027_en

Federal Republic of Germany. (2022). *Code of Criminal Procedure*. C.H. Beck.

General Administration of Customs of the People's Republic of China. (n.d.). *Regulations of the People's Republic of China on Implementing Customs Administrative Penalty.* http://english.customs.gov.cn/statics/4440eff0-0440-4876-8f8a-9c8f16be4355.html

Khamedov, I. A., & Mukhamedov, O'. X. (Eds.). (2017). *Ma'muriy huquq* [Administrative law]. Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan.

Kozlov, Yu. M. (1999). *Administrativnoe pravo* [Administrative law]. Yurist.

Republic of Kazakhstan. (2014, July 5). *Code of the Republic of Kazakhstan on administrative offenses.* Adilet.zan.kz. https://adilet.zan.kz/rus/docs/K1400000235

Republic of Uzbekistan. (2026). *O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi* [Code of the Republic of Uzbekistan on administrative responsibility]. Adolat.

Royal Canadian Mounted Police. (2020). *2020 RCMP annual public report on the Ministerial Direction for Avoiding Complicity in Mistreatment by Foreign Entities.* https://rcmp.ca/en/corporate-information/publications-and-manuals/2020-rcmp-annual-public-report-ministerial-direction-avoiding-complicity-mistreatment-foreign

Salishcheva, N. G. (1964). *Administrativnyy protsess v SSSR* [Administrative process in the USSR]. Legal literature.

Shevchenko, T. (2025). The use of electronic evidence as means of proof in administrative court proceedings. *Scientific Works of Kyiv Aviation Institute. Series Law Journal "Air and Space Law", 3*(76), 95–100. https://doi.org/10.18372/2307-9061.76.20524

Supreme Court of the Republic of Uzbekistan. (n.d.). *Sudlar faoliyati bo'yicha statistik ko'rsatkichlar* [Statistical indicators of court activities]. https://stat.sud.uz/criminal

# YURISPRUDENSIYA

## HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

**2026-YIL 5-SON**

VOLUME 6 / ISSUE 5 / 2026

DOI: https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.65

DOI: https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence